ODDIY SHAFTOLI (PRUNUS PERSICA (L) BATSCH.) FLAVONOIDLARI

Abdurasulieva G.M. [1]
Farmanova N.T.[2]
Berdimbetova Г.E. [1]
[1]**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo‘limi**
Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
gulshadabdurasulieva@gmail.com
tel.: +998911641292
[2]**Toshkent farmatsevtika instituti**
https://doi.org/10.5281/zenodo.14180110

Oddiy shaftoli Prunus persica (L) Batsch. butun dunyoda ko‘p tarqalgan, tarkibidagi biologik faol moddalari bilan ajralib turadi. Adabiyot manbalariga qaraganimizda shaftoli mevalari tarkibida temir moddasi ko‘p bo’lib, 300-400 g shaftoli iste’mol qilish natijasida organizmni kunlik dozasini ta’minlaydi [1]. Shuningdek, oddiy shaftoli barglari tarkibida K (4348 mg/l) va Ca (2410 mg/l) ko’pligi organizmdagi ushbu elementlarga ehtiyojni qondiradi [2]. Oddiy shaftoli mevalari va barglari tarkibida flavonoidlardan kempferol, kversetin, izoramnetin, rutin va apigenin borligi aniqlangan. Flavonoidlar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va bakteridsid ta’sirlarga ega.

Lekin hozirgi vaqtda Orol mintaqasida joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘stirilgan oddiy shaftoli barglari tarkibidagi flavonoidlar o‘rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog’iston Respublikasida o‘stirilgan oddiy shaftoli barglari tarkibidagi flavonoidlarni tahlili.

Tadqiqot usul va uslublari. Oddiy shaftoli barglari 2022-yilning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qong‘irot tumanida avgust oyida yig‘ildi va standart holatiga keltirildi hamda laboratoriya sharoitida 70% spirt yordamida quruq ekstrakt tayyorlandi. Flavonoidlar YuSSX va SX-MS usullarida tahlil qilindi.

Natija. Tahlil natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi oddiy shaftoli barglari quruq ekstrakt (QRSHBE) tarkibida YuSSX usulida kversetin, apigenin, kempferol, rutin, giperozid, SX-MS tahlil natijasida esa kversetin, apigenin, kempferol, rutin, giperozid, izoramnetin, epigallokatexin borligi aniqlandi. Shuningdek, olingan natijalar boshqa mintaqalarda o’stirilgan ob’eklarda (Krasnodor o‘lkasi shaftoli bargi ekstrakti (KO‘SHBE) va Turkiya shaftoli mevasi ekstrakti (Turkey SHME) flavonoidlarni aniqlashga oid izlanishlar bilan solishtirildi.

KO‘SHB oddiy shaftoli barglari va Turkey SHM dagi oddiy shaftoli mevasi ekstrakti tarkiblaridagi flavonoidlarga oid izlanish natijalari adabiyotda keltirilgan ma’lumotlardan olindi (1-jadval).

1-jadval

Turli mintaqalarda o’stirilgan oddiy shaftoli ekstraktlari tarkibida aniqlangan flavonoidlar tahlil natijalari

Ob’ekt	**QRSHBE**	**QRSHBE**	**KO‘SHBE**	**TurkeySHME**
Usul	**YuSSX**	**SX-MS**	**QX**	**SX-MS**
1	Kversetin	Kversetin	Kversetin	Kversetin
2	-	**-**	-	izokversetin
3	Apigenin	Apigenin	Apigenin	Apigenin

4	Kempferol	Kempferol	Kempferol	Kempferol
5	Rutin	Rutin	Rutin	Rutin
6	Giperozid	Giperozid	-	-
7	-	Epigallokatexin	-	Epigallokatexin
8	-	Izoramnetin	-	-
9	-	-	-	Sinarozid
10	-	-	-	Naringenin
11	-	-	-	Gesperidin
12	-	-	-	Luteolin
13	-	-	-	Genistein

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, giperozid, epigallokatexin, izoramnetinlar Qoraqalpog'iston Respublikasi o'sadigan oddiy shaftoli barglari tarkibida birinchi marta aniqlangan.

Xulosa. Ilk bora Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sadigan oddiy shaftoli barglari tarkibidagi flavonoidlar YuSSX va SX-MS usullarida tahlil qilinib, ulardan giperozid, epigallokatexin, izoramnetinlar birinchi marta aniqlangan.

References:

1. Нормахматов Р. Потребительская оценка и товароведческая характеристика плодового сырья Узбекистана и его рациональное использование//Автореферат.-Ташкент.2022.-С.12.
2. Абдурасулиева Г.М., Бердимбетова Г.Е., Фарманова Н.Т. Макро-и микроэлементы листьев персика обыкновенного (Persica vulgaris Mill.), произрастающего в Каракалпакстане//Инфекция, Иммунитет и Фармакология.-Ташкент. 2022. -№4 -С.14.
3. Иванцова Л.В., Белоногова В.Д., Молохова Е.И. Фармакогностическое исследование стандартизация персика обыкновенного листьев и разработка экстракта густого на его основе//Диссертация на соискание ученой степени кандитата фармацевтических наук.-Пермь. 2020.-С.27-65.
4. Ayun Sener Geduk., Selma Atsiz. LC-MS/MS phenolic composition of peach (Prunus persica (L.) Batsch) extracts and evaluation of their antidiabetic, antioxidant and antibacterial activities//South African Journal of Botany 147(2022).-P.636-645.